

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOYI UNIVERSITETI  
O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**QURBONOVA SAODAT  
NAVOIY DEBOCHALARI POETIKASI  
(“Badoye’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” debochalari misolida)**

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

**Ilmiy rahbar: dots. Yusupova D.**

**Toshkent - 2018**

## **Mundarija**

**KIRISH.....**

**I BOB. “BADOYE’ UL-BIDOYA” DEBOCHASI BADIYATI**

**1.1. Debochada devon tartib berish bilan bog‘liq tamoyillar.....**

**1.2. Debochadagi she’riy parchalarning janr va vazn xususiyatlari, badiiy san’atlar va qofiya masalalari.....**

**II BOB. “XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTI UCHUN TUZILGAN**

**DEBOCHANING BADIY XUSUSIYATLARI**

**2.1. Debocha – kulliyot janrlari uchun ochqich sifatida.....**

**2.2. Debochadagi she’riy parchalar poetikasi.....**

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarblii.** O‘zbek mumtoz adabiyoti ma'naviyatimizning mustahkam ildizlaridan biri desak yanglishmagan bo‘lamiz. O‘tgan ming yil davomida ijod qilingan badiiy asarlar: turli janrdagi she'rlar, dostonlar, masnaviylarning zamirida ajdodlarimizning hayot va o‘lim, olam va odam, iymon va e'tiqod haqidagi qat'iy xulosalari aks etgan. Bu xulosalar axborot zamonida sokin qalb, teran tafakkur, ulug‘vor maqsadlar egasi bo‘lishimizda o‘ta ahamiyatlidir. Agar biz ajdodlarimiz qoldirgan bu ma'naviy merosga tayanmasak, o‘zligimizni yo‘qotib, ayni paytda moddiy rivojlanishda bo‘lgan turli millatlarning ta'siriga tushib qolishimiz mumkin. Demak, mumtoz adabiyotimizni chuqr o‘rganish, uning an'analaridan, yaratilish tarixidan xabardor bo‘lish bugungi kunda har doimgidan ko‘ra zarurdir.

Har qanday millat borki, uning adabiy merosi, o‘ziga xos urf-odatlari shu xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti o‘zlarining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida bejiz: “Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san'ati, badiiy adabiyotdir. Badiiy adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta”<sup>1</sup>, – deb ta'kidlamaganlar.

Mustaqillik sharofati ila milliyligimiz, o‘zligimizni namoyon etadigan barcha sohalar rivoj topib bormoqda. Xususan, milliy va jahon adabiyotini o‘rganishda bu soha eng avvalidadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat oldiga qo‘ygan vazifalaridan biri ham aynan shu haqda: “Kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilishdir. Bu o‘rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jahon ilm-

---

<sup>1</sup>И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б.86.

fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda”<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma’naviy siyemosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu so‘z g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san’atkoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risidagi 2016-yil 13-maydagi № PF-4797 Farmonida aks etganidek, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go‘zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha siyosat-u rayosatlardan ustun kelib, vaqt atalmish oliy hakamni ham o‘z izmiga bo‘ysundirganligi, dunyodagi eng oily mo‘jiza – So‘z qudrati va uning go‘zal o‘zbekona ifodasi sohibi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo‘lmas haqiqatlardan hisoblanadi. Shu bois, ma’naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Navoiyning o‘lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko‘proq bahramand bo‘lishiga harakat qiladi.

Alisher Navoiy yaratgan asarlar navoiyshunoslikda ko‘p jihatdan tadqiq etilgan bo‘lishiga qaramay, uning hali ko‘plab asarlari badiiyati, xususan devonlari uchun yozilgan maxsus muqaddimalar, ya’ni debochalar poetikasi she’rshunoslik nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmagan.

Debochalar kompozitsiyasi, ulardagi she’riy parchalarning janr va vazn xususiyatlari, ularda qo‘llanilgan qofiya turlari, badiiy san’atlarni o‘rganish va

---

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик коидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

boshqa qator hodisalar hali debochalar misolida maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzuining dolzarbligini belgilaydi.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** Alisher Navoiy ijodi poyonsiz bir ummonkim, unga sho‘ng‘igan har bir olim, har bir avlod yangidan-yangi durlar topib chiqadi. Adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy devonlari va ulardag‘i debochalarni tadqiq etish bilan bog‘liq masalalar amalga oshirilgan.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotda barcha asarlar an’anaviy muqaddima bilan boshlanib, ular maxsus istiloh - “debocha” atamasi bilan yuritilgan. Debocha istilohi keng ma’noda umuman muqaddimani, tor ma’noda esa devonlarga yoziladigan kirish so‘zlarini anglatgan. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda debochaning ana shu tor ma’nodagi ifodasi nazarda tutiladi, zero bitiruv ishimizning maqsadi Alisher Navoiy devonlariga bitilgan debochalarni o‘rganishdir.

O‘zbek adabiyotida Navoiy debochalari va ularda qo‘yilgan masalalar to‘g‘risida birinchi marta fikr bildirgan adabiyotshunos olim A.Hayitmetovdir<sup>3</sup>. Olim o‘z tadqiqotida Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda shoir debochalarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Xususan, Navoiyning ustozlari va zamondosh shoirlarga bo‘lgan munosabatini kuzatish borasida, shoir g‘azallarining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda debochadagi ma’lumotlar nihoyatda muhimdir.

Atoqli navoiyshunos olim Hamid Sulaymonning “Xazoyin ul-maoniy” matnlarini o‘rganish va nashrga tayyorlashning asosiy masalalari” nomli tadqiqotida “Xazoyin ul-maoniy” ning yaratilishi, uning tuzilishi va devonlarning nomlanishi, shuningdek, devonlarga kirgan she’rlarning yosh chegaralarini aniqlashda debochadagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etishi haqida so‘z boradi<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Ҳайитметов А. Алишер Навоининг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: 1959;

<sup>4</sup> Сулеймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” матнларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари / Хазойин ул-маоний. 4 томлик, 1-том. – Тошкент, 1959. – Б.5-28

Navoiyshunos olim Y.Is'hoqovning Navoiy she'riyati va uning poetikasi ustida olib borgan ko‘p yillik izlanishlari ham bu jihatdan e’tiborga molikdir<sup>5</sup>. Olim “Navoiyning ilk lirikasi” tadqiqotida shoirning fors-tojik adabiyotidagi an’analarga munosabati va g‘azalchilik sohasidagi yangilik masalasini debochalar muhim manbalardan biri ekanligini ko‘rsatib beradi. “Navoiy poetikasi” kitobida esa shoir g‘azallarining g‘oyaviy mavzusi, tuzilishi, uslubi, badiiyati, qisqasi, o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilar ekan, ulkan bir ochqich sifatida debochalarga murojaat qiladi. Bu bilan shoir devonlaridagi g‘azallarni o‘rganishda debochaning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatib beradi. Y.Is’hoqovgacha o‘zbek g‘azalchiligi masalalari bilan shug‘ullangan olimlar devon debochalariga yetarlicha ahmiyat bermaganlari sababli bu tadqiqot nihoyatda qimmatlidir.

M.Solihovaning “Alisher Navoiy devonlariga yozilgan debochalarda shoir biografiyasiga doir ma’lumotlar”<sup>6</sup> maqolasida debochalarda shoirning hayoti, asarlarining yozilish tarixi, ustozи haqida ma’lumotlar mavjudligi to‘g‘ri ta’kidlangani holda bu masalalarning ayrimlari, xususan, shoir devonining g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi, keksalikdagi xastaligi haqidagi fikrlar chala va yuzaki yoritilgan.

Alisher Navoiy debochalarini o‘rganish borasida adabiyotshunos olim V.Zohidovning xizmatlari alohidadir<sup>7</sup>. Muallif “Debochaning siri” maqolasida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy o‘rtasidagi munosabatlarni, ayniqsa, mamlakat hukmdorining ulug‘ shoir ijodiga bo‘lgan munosabatini “Xazoyin ul-maoni” debochasi asosida to‘g‘ri yoritishga va xolis baholashga harakat qiladi. “Yana debochaning shahodati” maqolasida «Badoye’ ul-bidoya» debochasi asosida Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi, devonning yaratilish tarixini bayon qiladi.

<sup>5</sup> Исҳоқов Ё. Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент, 1965. Ўша муаллиф: Навоий поэтикаси. – Тошкент: 1983.

<sup>6</sup> Солихова М. Навоий дебочаларида шоир биографиясига доир маълумотлар // Адабий мерос. 1-том. – Тошкент: 1968. – Б.94-95

<sup>7</sup> Зоҳидов В. Дебочанинг сири. Ҳаётбахш бадиият тароналари. – Тошкент: 1975. – Б.119-136. Ўша муаллиф. Яна бир дебочанинг шаҳодати. Жаҳон бадиияти зарвараклари. – Тошкент: 1980. – Б.282-298.

Yana bir adabiyotshunos olimlardan biri F.Karimovaning “O‘zbek adabiyotida debocha” nomli tadqiqoti ham biz o‘rganayotgan mavzuga bevosita aloqadordir. Olima tadqiqotining bir bo‘limi Alisher Navoiy debochalariga bag‘ishlangan bo‘lib, bunda F.Karimova debochalarning ilmiy qimmati, ularning Navoiy ijodida tutgan o‘rni, badiiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadi<sup>8</sup>.

Lekin yuqoridagi ishlarda Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” hamda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiruvchi debochalari poetikasi, ulardagi she’riy parchalarning janr va vazn xususiyatlari, qofiya va badiiy san’atlar bilan bog‘liq masalalar monografik planda maxsus tadqiq etilmagan edi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” hamda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiruvchi debochalari poetikasini tadqiq etishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishining oldiga qo‘ygan vazifalari asosan quyidagilardan iborat:

- “Badoye’ ul-bidoya” devoni uchun bitilgan debochani kompozitsion jihatdan tadqiq etish, unda keltirilgan devon tartib berish bilan bog‘liq tamoyillarni o‘rganish;
- Debochadagi she’riy parchalarni mazmun va shakl nuqtai nazaridan tasnif qilish, ularning janr xususiyatlarini o‘rganish;
- Debochadagi she’riy parchalarda qo‘llanilgan vazn, qofiya va badiiy san’atlarni tadqiq etish;
- “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti uchun yozilgan debochaning kompozitsion xususiyatlarini o‘rganish;
- Debochaning kulliyot uchun badiiy ochqich ekanligini dalillar bilan asoslash;
- Debochadagi she’riy parchalar, xususan ruboilarlarni mumtoz poetika nuqtai nazaridan tadqiq qilish.

---

<sup>8</sup> Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2008. – Б. 8.

**Ishning asosiy manbalari** sifatida Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” (MAT, 1-jild) hamda “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni hisoblanmish “G‘aroyib us-sig‘ar” (MAT, 3 -jild) asarlari olindi. Shuningdek, o‘rnini bilan shoirning boshqa asarlari va mumtoz manbalarga ham murojaat qilindi.

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, to‘rt faslni o‘z ichiga olgan ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## I BOB. “BADOYE’ UL-BIDOYA” DEBOCHASI BADIYATI

### 1.1. Debochada devon tartib berish bilan bog‘liq tamoyillar

Musulmon Sharqi adabiyotida asarlarni muqaddima bilan boshlash an’ana hisoblangan. Bu haqda professor N.Mallayev o‘zining “An’anaviy muqaddimot haqida” nomli maqolasida alohida ta’kidlab o‘tgan edi<sup>9</sup>. Adabiyot tarixida yaratilgan turli janrdagi asarlarning kirish qismi an’anaga muvofiq hamdu na’t bilan boshlangan, asar bag‘ishlangan shaxs va uning madhiga keng o‘rin berilgan, asarning yozilish sabablari hamda asarda qo‘yilgan masalalar bayon etilgan. O‘zbek adabiyotining ilk namunalari hisoblangan “Devonu lug‘otit turk” (Mahmud Koshg‘ariy), “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib), “Qisasi Rabg‘uziy” (Rabg‘uziy), “Muhabbatnoma” (Xorazmiy), “Tazkirat ush-shuar” (Davlatshoh Samarqandiy) kabi asarlarda shu xarakterdagi an’anaviy muqaddimalar mavjud.

O‘zbek mumtoz adabiyotining cho‘qqisi hisoblanmish Alisher Navoiy asarlari ham an’anaviy muqaddima bilan boshlangan bo‘lib, ularning xarakteri turlicha. Bunga “Xamsa” dostonlari, “Nazm ul-javohir”, “Arba’in”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarining muqaddimalarini keltirish mumkin.

Dastlab mumtoz adabiyotda “debocha” so‘ziga berilgan ta’riflarga to‘xtalib o‘tsak. Muhammad G‘iyosiddinning “G‘iyos ul-lug‘at” asarida debocha podshohlarning bezakdor ustki kiyimi, kitobning ziynat berilgan birinchi varag‘i ma’nolarini ifodalashi haqida aytib o‘tilib, “kitob xutbasini (boshlanish qismini) bezash munosabati bilan aytilgan kirish qismiga ham debocha deyilishi” ta’kidlanadi<sup>10</sup>.

“Farhangi zaboni tochiki”da “debocha”ning bir nechta ma’nolari keltirilib, ulardan eng asosiyлари sifatida “qimmatbaho ipak matodan tikilgan va zaru javohir bilan ziynat berilgan shohona libos”, “zarhal va qimmatbaho ranglar bilan sayqla

<sup>9</sup> Маллаев Н. Ананавий муқаддимот ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. № 1.

<sup>10</sup> Мухаммад Фиёсуддин. Фиёс ул лугат. Иборат аз се жилд. Ж.1. – Душанбе: Адиб, 1987. – С.460.

berilgan qadimgi kitoblar muqaddimasi, ya’ni 1-varag‘i” debocha deb atalashi, shuningdek majoziy ma’noda “so‘zboshi, muqaddima, har narsaning ibtidosi” ma’nolarini ham anglatishi aytib o’tiladi<sup>11</sup>.

Yuqoridagi ta’riflardan ma’lum bo‘ladiki, mumtoz adabiyotda barcha kitoblarning kirish qismlari “debocha” deb atalgan. Debocha istilohi keng ma’noda umuman muqaddimani, tor ma’noda esa devonlarga yoziladigan kirish so‘zlarini anglatgan. Bizning bitiruv malakaviy ishimizda debochaning ana shu tor ma’nodagi ifodasi nazarda tutiladi, zero bitiruv ishimizning maqsadi Alisher Navoiy devonlariga bitilgan debochalarni o‘rganishdir.

Ma’lumki, devonlarga bitilgan debochalar boshqa asarlardan masalalarning qo‘yilishi va mazmuni, kompozitsiyasi, bayon uslubi kabi ko‘pgina jihatlari bilan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, debochalar shoirning tarjimai holiga oid ma’lumotlar, adabiy faoliyati, asarlarning yaratilish tarixi, adabiy-estetik qarashlarini ifoda etishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi<sup>12</sup>.

Alisher Navoiy debochalari shoirning ilk rasmiy devoni «Badoye’ ul-bidoya” va she’riyatining gultoji bo‘lmish “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga bitilgan bo‘lib, mazkur debochalar shoirona uslubning betakror namunasi hisoblanadi.

Aslida Alisher Navoiy o‘zining ikkinchi rasmiy devoni “Navodir un-nihoya” uchun ham debocha bitgan. Bu haqda “Xazoyin ul-maoniy”ga bitgan debochasida shunday yozadi: “...Andin so ‘ngra dag‘i ul jam‘u tartibdin boshqa yana har taqrib bila har nav’ abyotkim, aytilib erdiyu har nav’ g‘azaliyotkim, yig‘ilib erdi, ul xayol shabistonining duraxshon axtarlarinu ul ko‘ngul maxzanining duraxshon gavharlarin dag‘i ikkinchi devonimdakim, “Navodir un-nihoya”g‘a mashhurdur, rabtu tartib berib, **debochasinda** (ta’kid bizniki – S.Q.) sharh bila aizzayi ashobu ajillayi ahbob xidmatlarida arz qilib erdim”.

---

<sup>11</sup> Фарҳанги забони тоҷики. Иборат аз ду жилд. Жилди 1. – М.: Наука, 1969. – С. 360–361.

<sup>12</sup> Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2008. – Б. 8.

Ushbu qaydlardan ma'lum bo'lyaptiki, shoirning ikkinchi rasmiy devoni uchun ham debocha bitilgan va unga turli nav' – janrlardagi she'rlar kiritilgan. Lekin afsuski, bu debocha shoirning mazkur devoni qo'lyozmalari tarkibida uchramaydi<sup>13</sup>.

Ma'lumki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan keyin uning topshirig'i bilan o'zining birinchi rasmiy devoni "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylikning boshlanishi")ni tartib beradi. Devonning Alisher Navoiy hayotlik davrida (1480, 1482 va 1486 yillarda) ko'chirilgan nusxalari Parij Milliy kutubxonasida (1480 yil, inv. № 746), Britaniya muzeyida (1482 yil, inv. № 401) va Toshkent shahrida (1486 yil, inv. № 216, asos nusxa) saqlanadi<sup>14</sup>. Devon mazkur nusxalar asosida filologiya fanlari nomzodlari Sh.Sharipov va M.Rahmatullayevalar tomonidan nashrga tayyorlangan (MAT, 1-jild).

Shoir debochada devonni tartib berish jarayonidagi o'ziga xos jihatlarni, ya'ni devon tuzish tamoyillarini bayon etishga alohida to'xtaladi. Navoiy yozadi: "Bu devon, inshoollo, bu zobra bilakim mazkur bo'lur, murattab bo'lg'ay, ihyo topgay. Necha nav' ishkim, munda mar'iy bo'lubturur, o'zga davovinda ko'rulmaydurur"<sup>15</sup>.

Faqat Navoiy devoni uchun xos bo'lgan va boshqa devonlarda uchramaydigan xususiyatlar shoirning devon tuzish tamoyillarini belgilab beradi. **Birinchi** tamoyil, Navoiyning yozishicha, "Avval budurkim, har kishikim, devon tartib qilibdurur, o'ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqe'durur va ulus kitobatida shoyi' to'rt harfg'a taarruz qilmaydururlar. Chun so'z arusi nazm

---

<sup>13</sup> Бу ҳақда қаранг: Д.Юсупова. “Наводир ун-ниҳоя” факат ғазаллардан иборат девонми? / Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий назарий анжумани материаллари. – Т.: TAMADDUN, 2017. – Б. 54 - 61).

<sup>14</sup> Навоийшунос олим А.Эркинов жаҳон қўлёзма фондларида сақланаётган нусхаларни ўрганиш асносида "Бадоев ул -бидоя" девонининг яна икки қўлёзма нусхасини фанга маълум қилди (Бу ҳақда қаранг: А.Эркинов. "Бадоев ул -бидоя"нинг Навоий замонида кўчирилган ва янги аниқланган қўлёзмаси) / Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий назарий анжумани материаллари. – Т.: TURON-IQBOL, 2018. – Б. 51 -57).

<sup>15</sup> Алишер Навоий. Бадоий ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. Ж.1. – Б.20. (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинади ва асар саҳифаси қавс ичida кўрсатилади).

haririning matbu' kisvatin va mavzun xil'atin kiyib, jilva og'oz qilsa, huqqai yoquti dag'i o'ttuz ikkita gavhardin qachonkim to'rtig'a nuqson voqi' bo'lsa, muqarrardurkim, jamolig'a andin qusur va kalomig'a andin futur voqi' bo'lg'usidurur. Bul jihatdin ul to'rt xarf javohirlarin dag'i o'zga huruf javohiri silkig'a tortib, g'azaliyotni o'ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi" (B.20-21). Bu o'rinda Navoiy devon tartib bergen shoirlar arab-fors alifbosidagi 32 harfning to'rttasi bilan tugallanuvchi g'azal bitmasliklarini ta'kidlaydi va o'z devonidagi gazaliyot qismining "o'ttiz ikki harf tartibi" bilan tasnif qilinganligini bayon etadi.

Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is'hoqov Navoiy tilga olgan 4 ta harf forsiy va turkiyga xos (Ҷ – chim, Ѓ – je, Ӯ – gof va Ӯ – lom-alif) harflar ekanligi, bu harflarga Navoiy qator g'azallar bag'ishlaganligini ta'kidlaydi<sup>16</sup>. Shu munosabat bilan "Badoe' ul-bidoya" devonini ko'zdan kechirganimizda, Ҷ (chim) harfida 5 ta, Ѓ (je) harfida 1 ta, Ӯ (gof) harfida 21 ta g'azal borligi ma'lum bo'ldi. Ӯ (lom-alif) harfida bitilgan g'azallar esa "Navodir un-nihoya" va "Xazoyin ul-maoniy" devonlariga kiritilgan. Olima F.Karimovaning taxminicha, Navoiy ta'kidlagan to'rtinchi harf forsiy va turkiyga xos (pe) harfi bo'lishi kerak. "Badoye' ul-bidoya"da bu harfda 1 ta g'azal mavjud<sup>17</sup>.

Umuman olganda, Alisher Navoiy o'zidan avvalgi o'tgan shoirlarning devonlaridagi kamchilikni tuzatgan, ya'ni alifbodagi 32 ta harfning barchasida go'zal g'azallar bitib, o'z devonining bu jihatdan mukammal bo'lishiga erishgan.

Adabiyot tarixidagi dastlabki devonlar, jumladan, fors-tojik shoirlari Unsuriy, Farruhiy, Manuchehriylar, shuningdek turkiy shoirlar Sakkokiy, Hofiz Xorazmiylarning dsvonlari g'azal bilan emas, balki qasida bilan boshlangan. Bu davrdagi qasidalarda shoirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy mazmundagi qarashlari ham aks etdi. Shuningdek, forsiy adabiyotda qasidalar shoirning badiiy mahoratini belgilashda muhim omillardan sanalgan va shu tufayli ko'pchilik

<sup>16</sup> Исхоков Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б.

<sup>17</sup> Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2008. – Б. 29.

shoirlar qasida janrida ijod qilganlar. O'sha davr adabiy muhitida qasida janrining rivojlanganligi sababli ularning devon boshida berilishi ananaviy holatga aylandi.

Shuningdek, shoir devonidagi g'azallarni joylashtirishda ham ma'lum bir **tamoyilni** qo'llaydi. Bu tamoyilni Navoiy debochada shunday ta'riflaydi: "Yana bukim, har harf g'azaliyotining avval bitilgan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahma Haq subhonahu va taolo hamdidin yo Rasul alayhissalom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmog'liq avlodurur. Bu nav' xayole xotirg'a kelgan uchun har harf g'azaliyotining avvalg'i g'azalini yo Tangri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayhissalom na'ti bila mufattah, yo bir mav'iza bilakim, bu ikki ishdin biriga dol bo'lg'ay, muvazzah qilindi" (21-bet).

Ko'rindiki, Navoiy devon tuzishda uning umumi kompozitsiyasiga katta e'tibor beradi, shu bilan birga, har bir harf g'azaliyoti kompozitsiyasining ham mukammal bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni birinchidan, devonning, ikkinchidan, har bir harf g'azaliyotining dastlabki g'azallari yo Tangri taolo madhiyasi bilan, yo Muhammad payg'ambar maqtovi bilan boshlanadi yoxud orifona ruhdagi g'azallardan tarkib topadi.

Har bir shoir o'z g'oya va qarashlarini kitobxonga yetkazish maqsadida eng tez tarqaladigan, eng mashhur janrga murojaat qiladi. Navoiy uchun keng xalq ommasiga ma'qul va manzur janr g'azal edi. Shoir o'zining odam, olam haqidagi falsafiy qarashlarini ham shu janrda berishga intildi. Bunday xarakterdagi g'azallarini o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda devon boshida va har bir harf g'azaliyotining avvalida joylashtiradi.

Debochada ta'riflangan **uchinchchi** tamoyil Navoiy g'azaliyotining mavzu doirasi bilan bog'liqdir. Shoir debochada yozadi: "Yana bir bukim, go'yiyo ba'zi el ash'or tahsilidin va devon takmildin g'araz majoziy husnu jamol tavsifi va maqsud zohiriy xattu xol ta'rifidin o'zga nima anglamaydururlar. Devon topilg'aykim, anda ma'rifikatomiz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda mav'izatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda

zahmat va zoyi' mashaqqat totilg'an bo'lg'ay. Ul jihatidin bu devonda hamdu na't va mav'izadin boshqa har sho'rangiz g'azaldinkim, istemolchi mahvashlarga mujibi sarkashlik va g'amkashlarga boisi mushavvashliq bo'lg'ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav'izatoso bayt irtikob qilindi..." (21-bet).

Ma'lumki, mumtoz shoirlar o'z g'azallarini, asosan, ishq-muhabbat mavzuida yaratganlar. Zero, "g'azal xotin-qizlarga nisbatan bo'lgan sevgi mavzuidagi lirik she'rdir"<sup>18</sup>. Shu bilan birga tarkibiga jamiyat masalalari haqidagi ijtimoiy fikrlar singdirib yuborilgan ishqiy g'azallar ham yaratildi. Jumladan, Lutfiy ijodidagi juda ko'p g'azallar tarkibida o'zi yashab turgan zamonadan norozilik tuyg'ulari ifodalangan baytlar uchraydi. A.Hayitmetov «Navoiy lirikasi» kitobida bunday baytlarni lirik chekinish tarzida bitilgan baytlar deb atagan<sup>19</sup>.

O'tmishdagi ayrim shoirlar ijodida, asosan, mavzudan yuqoridagidek chetga chiqish hollari uchrasa-da, lekin sof ijtimoiy, didaktik xarakterdagi yaxlit g'azallar yaratilmagan edi.

Navoiy birinchi galda insoniy sevgini ulug'lovchi g'oyaviy, badiiy yuksak g'azallar yaratdi. Zero, shoir g'azallarining to'rtdan uch qismidan ko'prog'ini ishqiy g'azallar tashkil etadi. Bu mavzu umuman musulmon Sharqi she'riyatida ham yetakchi o'rinda bo'lib, Alisher Navoiy bu mavzuga o'z ijodining deyarli barcha bosqichlarida murojaat qilgan:

*Ey Navoiy, ishq atvorini hifz aylay degan,  
Barcha ishni tark etib, qilsun bizing devonni hifz.*

Alisher Navoiy ijodida majoziy ishq haqiqiy ishqqa qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki majoziy ishq haqiqiy ishq uchun ko'prik degan g'oya ilgari suriladi:

*Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,  
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.*

<sup>18</sup> Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашри) / Нашрга тайёрловчи Н.Жумахўжа. – Т.: O'zbekiston, 2015. – Б. 82.

<sup>19</sup> Ҳайитметов А. Юкоридаги асар. – Б.112.

*Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,  
Qilur majozni nafyi ulki, behaqiqat erur.*

(“Favoyid ul-kibar, 5-qit'a)

Shu bilan birga, Navoiy o‘z g‘azallarida davrning muhim masalalarini qalamga oldi va ishqiy g‘azallar bilan birlashtirishda falsafiy, ijtimoiy va didaktik xarakterdagi yaxlit g‘azallarning eng go‘zal namunalarini yaratdi va o‘z devonining kompozitsion-mavzu jihatdan mukammal bo‘lishiga erishdi. Yuqoridagi qaydda shoir ana shularni ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy mazmun va shakl birligi masalasiga katta e’tibor beradiki, bu debochada ta’riflangan **to‘rtinchi** tamoyildir. U o‘zigacha salaflari tomonidan qonuniyat darajasiga yetkazilgan – shakl va mazmun mutanosibligi masalasini ijodining bosh tamoyili qilib oldi. Shayx Abdulqohir Jurjoniy o‘zining “Asror ul-balogs” asarida “Eng yaxshi ma’noni o‘z tabiatiga qo‘y, u o‘ziga muvofiq so‘zlar (shakl)ni o‘zi topa olsin” deb yozgan bo‘lsa, Navoiy bu fikrni she’riy yo‘l bilan quyidagicha bayon qildi:

*Nazmda ham asl anga ma’ni durur,  
Bo‘lsun aning surati har nedurur.*

Shoir debochasida yozadi: “Yana bukim, soyir davovinda rasmiy g‘azal uslubidinkim, shoyi’durur, tajovuz qilib, maxsus nav'larda so‘z arusining jilvasig‘i namoyish va jamolig‘a oroyish bermaydururlar. Va agar ahyonan matla’e maxsus nav’da voqi’ bo‘lg‘an bo‘lsa, hamul matla’ uslubi bila itmom xil’atin va anjom kisvatin kiydurmaydururlar, balki tuganguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroyliq qilsa, yana biri firoq xazonida xornamoyliq qilibdurur. Bu surat dag‘i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko‘rundi. Ul jihatdin sa’y qilindikim, har mazmunda matla’e voqi’ bo‘lsa, aksar andog‘ bo‘lg‘aykim, maqta’g‘acha surat xaysiyatidin muvofiq va ma’ni jonibidin mutobiq tushkay” (22-bet).

Ma’lumki, Alisher Navoiygacha fors-tojik hamda turkiy shoirlar hamma vaqt ham g‘azallardagi barcha baytlarning mazmun jihatdan bog‘lanishiga e’tibor

beravermaganlar, bu hol o‘z davrida kamchilik sanalgan emas. Lekin Navoiy o‘zidan oldingi davrda yashab ijod etgan shoirlar ijodidagi bu holatni tanqid qiladi. Shoirlar g‘azalni boshdan-oyoq matla’ uslubi bilan tugallamaydilar, balki bir baytda visol bahori gul ochsa, ikkinchi bir baytda firoq xazoni hukmron. Navoiyning fikricha, bu maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun Navoiy g‘azalning matla’idagi mazmunni maqta’gacha rivojlantirib, davom ettirishga, baytlarning shakl jihatdan o‘zaro muvofiq va ma’noga mos hamda izchil bo‘lishini ta’minlashga harakat qildi.

Navoiyning o‘z ijodida bu tamoyilga qat’iy amal qilganligi o‘z davridayoq zamondoshlarining asarlarida e’tirof etilgan edi. Mumtoz she’rshunos Atoulloh Husayniy “Badoye’ us-sanoye”” asarida she’rning matbu’ turiga to‘xtalar ekan, bunday she’rning shakli yoqimli va mazmuni maqbul bo‘lishi kerakligini uqtiradi va Alisher Navoiy “Tuhfat ul-afkor” qasidasining matla’sini bunga misol qilib keltiradi: “Matbu’ deb andoq she’rg‘a ayturlarkim, ul sog‘lom tab’larg‘a maqbul vazng‘a, tuzuk qofiyag‘a asoslang‘an bo‘lur, alfozi yoqimlig‘-u iste’molda mashhur bo‘lur, tarkibi mustahkam-u latif bo‘lur, aning ma’nosi maqbul bo‘lub, kishilarning ko‘ngliga tekkan bo‘limg‘ay, sanoyi’din nimaiki anda ishlatilgan bo‘lsa, etuk tarzda bo‘lg‘ay va aning tufaylidin kalom anglamig‘ayu husni adosig‘a qusur etgan bo‘limg‘ay; qadimg‘ilar she’r jihatidin orttirg‘an ortiqcha harf-u alfoz va alfoz o‘zgarishlaridin xoli bo‘lg‘ay, hazrati xudovandgor (Alisher Navoiy)ning quyidagi bayti yanglig‘:

*Otashin la ’le, ki toji xusravonro zevar ast,*

*Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast”<sup>20</sup>.*

Va nihoyat, debochadagi **beshinchi** tamoyil devonning janrlar mundarijasiga aloqadordir: “Yana masnaviy bila qasoyildin boshqakim, inshoolloh, alar dag‘i har qaysi boshqa mujallad bo‘lg‘ay, har nav’ she’rdin, masalan, ruhafzo muxammaslar,

---

<sup>20</sup> Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадойиъ ус санойиъ / Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.

barcha xamsaziynat; va ravanoso musaddaslar, barcha sittaziynat; va mufid ruboiyot, barcha latofatomiz; va nofi' muqattaot, barcha manfaatangiz; va dilpazir musgazodlar, barchaning vasfi zoyid ul-had; va benazir fardlar, barcha lutfu ravanlikda mufrad; va nomiy muammolar, barchasi ot yoshurmoqda sotir; va iromiy lug‘zlar, barchaning maftunlug‘i zohir; va barcha musalsal tarji’lar, barcha marg‘ub; va mu’tadil tuyug‘lar, barcha turkiy uslub bu abyot zaylida muxayyal va bu ash’or xaylida muzayyal bo‘ldi” (22-23-betlar).

Navoiy bu o‘rinda har tomonlama mukammal bo‘lgan devonning janr mundarijasini bermoqda. Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek shoirlari ko‘proq g‘azal janrida ijod qilganlar Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy devonlarida g‘azaldan boshqa mustazod, ruboiy, tuyuq, qit’a janrlaridagi she’rlar uchraydi, xolos. Navoiy esa “Badoye’ ul-bidoya” devoniga lirikaning turli janrdagi nodir namunalarini kiritadi. Unda 11 janrga oid jami 1046 ta she’r mavjud. Devonga she’rlar quyidagi tartibda joylashtirilgan: g‘azal-777 ta, mustazod - 3 ta, muxammas 5 ta, musaddas - 2 ta, tarji’band - 3 ta, qit’a - 46 ta, ruboiy 85 ta, lug‘z - 10 ta, muammo - 52 ta, tuyuq - 10 ta, fard - 53 ta.

Bu bilan shoir o‘zbek adabiyotidagi lirikaning janr jihatdan rang-barang bo‘lishini ta’minladi. Bu an’ana Navoiydan keyingi davr shoirlari ijodida ham davom ettirildi. Masalan, Munis, Ogahiy kabi shoirlar o‘z devonlarining janr jihatdan rang-barang bo‘lishiga erishganlar.

Umuman olganda, Alisher Navoiy o‘z devoni debochasida asosiy masalalardan biri – devon tuzish tamoyillarini ham ilmiy, ham badiiy tarzda bayon etdi. Navoiyning yuqoridagi qaydlarini chuqr o‘rganish, tadqiq qilish shoirning ilmiy va badiiy ijod sohasidagi san’atkorligining muhim qirralarini ochib beradi. Shoir devonidagi she’rlarni chuqr o‘rganishda esa zarur ko‘rsatmalar vazifasini bajaradi.

## **1.2. Debochadagi she’riy parchalarning janr va vazn xususiyatlari, badiiy san’atlar va qofiya masalalari**

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” devoniga yozgan debochasi shoirona fikrlashning betakror namunasidir. Shoir o‘zining badiiy ijod bilan bog‘liq o‘y-fikrlari, nozik hissiyat va kechinmalarini debochada kuchli ehtiros bilan ifoda etadi. Debochalardagi nasriy bayoning o‘zi ham har qanday ta’sirchan she’riyatdan qolishmaydi<sup>21</sup>.

Navoiy debochalarida o‘zgacha bir she’riy ohang jilolanib turganligini his qilish mumkin. Ularga ana shu ohangdoshlikni, musiqiylikni bag‘ishlagan badiiy unsur saj’dir. “Saj... asar mazmunini ochish, obrazlilik, evfonik va ritmik funksiyalarni bajaradi”. Alisher Navoiy saj san’atining ana shu vazifalarini juda yaxshi bilgan va undan barcha nasriy asarlari qatori debochalarida ham unumli foydalangan.

Navoiy har ikki debochasida ham Husayn Boyqaro uning she’rlarini tahrir qilganligini, natijada g‘azallari “sohibnazarlar ko‘ziga mahbubroq va ahli dillar ko‘ngliga marg‘ubroq” bo‘la boshlaganligini katta hurmat va ehtirom bilan shunday ga’kidlaydi: “Chun bu baytlar ayvoni ul islohlar naqshu nigoridin rashki nigorxonai Chin va bu g‘azallar bo‘stoni ul ihtimomlar bahoridin g‘ayrati xuldi barin bo‘la boshladi; sohibnazarlar ko‘ziga mahbubroq va ahli dillar ko‘ngliga marg‘ubroq bo‘lub, hurmati g‘oyatdin va shuhrati nihoyatdin o‘tti...” (18-bet).

Navoiy keltirilgan misolda o‘z fikrlarini obrazli tarzda ochish, uni kitobxonga turli bo‘yoqlarda etkazish uchun saj’ san’atidan foydalanadi. Bu parchani o‘qiganda jumlalar ma’lum ritmga ega bo‘lgan ohangdosh bo‘laklarga ajralib qolganligini payqaymiz, qulog‘imiz ostida ajib bir go‘zal musiqaning yangrayotganini his qilamiz.

---

<sup>21</sup> Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2008. – Б. 71.

Navoiy debochalarda nasrning uch turi - erkin nasr, saj'li nasr va vazndosh nasr kabi turlarini qo'llagan. Buning o'ziga xos sabablari bor. Debochalarda realisgik o'rinalar, shuningdek, emotsional holatlarning mavjudligi, debochaning ko'tarinki ruhda bitilganligi kabi xususiyatlar nasrning turli ko'rinishlarini qo'llash imkoniyatini keltirib chiqargan.

Debochalar, asosan, saj'li va vaznli nasrda yozilgan bo'lib, saj'li nasr bayonda yetakchilik qiladi. Vaznli nasr saj'li nasrga qaraganda kam qo'llangan. Debochalar sharqona mumtoz uslubda yozilganligi uchun undagi saj'lanish xarakteri ham murakkabroq. Debochada aksar gaplarning deyarli hamma bo'laklari saj'lanadi va saj'ning uch turi - saj'i mutavoziy, saj'i mutarraf va saj'i mutavozin - aralash qo'llanadi. Shuningdek, debochalarda arabcha, forscha-tojikcha so'zlar ko'p ishlatilganligi uchun ham boshqa tilga xos bo'lgan so'zlar ko'proq saj'lanadi. Bular ifodalanayotgan fikrning tez tushunilishini ma'lum darajada qiyinlashtirshsh. Lekin bu debochalar uslubining xarakteridan kelib chiqadi. O'z navbatida, debochadagi boshqa tillardan kirgan so'zlarning ko'proq saj'lanishi Navoiyning arab, fors-tojik nasri poetikasining nozik qirralarini egallashdagi mahorati yaqqol namoyon bo'ladi.

Navoiy devon tuzish tamoyillari haqida gapirarkan, har bir harf g'azaliyotining avvali orifona g'azallar bilan boshlanmog'i kerakligini ta'kidlaydi. Shoир davom etib yozadi: "Agar lahzae bu saodat muyassar bo'lmasa, har mutaayyin amr iftithohida xud ne nav' *tag'oful* va *takosul* ravo ko'rulgay" (21-bet).

Yoki "Xazoyin ul-maoniy" debochasida shoир zamon hodisalari tufayli "oncha dushvorlig'lar" va "sa'b giriftorlig'lar" yuzlanganligi, ishq tug'yonи tufayli tug'ilgan kechinmalarini dardlashgani bir hamhard yo'qligini aytadi. Shuning uchun ham shoир ichki kechinmalarini, o'y-fikrlarini, hissyayotlarini qog'ozga to'kadi: "Bu vosita bila ko'nglum o'tig'a orome va ishqim bedodi nohamvorlig'iga andome hosil bo'lur erdi" (11-bet).

Birinchi misoldagi *tag‘oful* va *takosul*, ikkinchi misoldagi *orome* va *andome* so‘zlari to‘liq saj’langan so‘zlardir.

Debochalardagi she’riy parchalar debocha mazmunini kitobxonga yanada to‘liqroq va mukammalroq, shu bilan birga ta’sirchan tarzda yetkazishda, asar mazmunini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Badoye’ ul-bidoya” devoniga yozilgan debochada 31 o‘rinda she’riy parchalar keltirilgan bo‘lib, ularni devon mazmuni va maqsadini yoritishga xizmat qilishiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Hamd mazmunidagi she’rlar.
2. Na’t mazmunidagi she’riy parchalar.
3. Munojot mazmunidagi she’rlar.
4. Hasbi hol mazmunidagi baytlar.
5. Zamona hukmdori madhi aks etgan she’riy parchalar
6. Devonni tartib berishdan maqsadni bayon qiluvchi she’riy parchalar.
7. O‘zidan avval va o‘zidan keyin keladigan jumlalar o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan va ayni damda ikkala qismni ham to‘ldiruvchi baytlar.
8. Qissadan hissa tarzidagi xulosa baytlar.

Debochada jami 128 baytdan iborat she’riy parchalar keltirilgan bo‘lib, ularni shakliy xususiyatlariga ko‘ra, shartli ravishda *ruboiy*, *masnaviy*, *qit’a*, *to‘rtlik*, *fard* kabi janrlarga ajratish mumkin.

Mazkur she’riy parchalarning miqdori va hajmini quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

T.r.	<b>She’riy parcha janri</b>	<b>Debochadagi miqdori</b>	<b>Umumiy hajmi</b>
1.	Ruboiy	21 ta	42 bayt
2.	Masnaviy	9 ta	70 bayt
3.	Qit’a	1 ta	2 bayt

4.	To‘rtlik	2 ta	4 bayt
5.	Fard	10	10 bayt
	<b>Jami</b>	<b>43 ta</b>	<b>128 bayt</b>

Jadvaldan ma'lum bo'lyaptiki, debochadagi she'riy parchalarning miqdor jihatdan eng salmoqlisini ruboiy janridagi she'rlar tashkil etar ekan. Ma'lumki, ruboiy arabcha “to‘rtlik” ma’nosini bildirib, ikki baytdan iborat mustaqil she'r hisoblanadi. Ruboiy dastlab fors-tojik she'riyatida, Abu Abdulloh Rudakiy ijodida paydo bo‘lgan.

Ruboiyning 2 xil turi bor:

1) *ruboiyi xasiy (erkin ruboiy)* (qofiyalanishi: a-a, b-a):

2) *ruboysi musarra' yoki ziynatlangan ruboiy* (qofiyalanishi: a-a, a-a):

Alisher Navoiygacha turkiy she'riyatda asosan ruboiyning birinchi turi keng qo'llanilgan. Alisher Navoiy turkiy adabiyotda birinchi bo‘lib musarra' ruboiy janrida ijod qildi (“Xazoyin ul-maoniy”dagi 133 ta ruboiyidan 116 tasi musarra' ruboiy hisoblanadi), ruboiy janrining mavzu doirasini kengaytirib, ma'rifiy mazmun bilan boyitdi, falsafiy mohiyatini kuchaytirdi – hayotiy masala va muammolarga bog‘lab hayotga yaqinlashtirdi, ruboyni turkiy she'riyatda g‘azal kabi faol janr darajasiga olib chiqdi.

Navoiy ruboilarining mavzu ko‘lami keng bo‘lib, ular ishqiy, ijtimoiy, shoir hayotiga aloqador bo‘lgan hijron mavzusi va boshqalardan iborat. Biroq ruboiy janri talablaridan kelib chiqilsa, ruboiy qaysi mavzuda bo‘lishidan qat'i nazar, avvalo, u falsafiy mohiyatga ega bo‘lishi zarur. Shu ma'noda Navoiy ruboilarida jamiyat hayotidagi muhim masalalar badiiy-falsafiy talqin etiladi. Ruboylarning muayyan qismida shoir o‘z hayotidagi konkret voqealarga murojaat qiladi. Biroq shoir voqelikning o‘zini emas, balki shu konkret voqelik bilan bog‘liq holda o‘zining umumlashma fikrlarini – tiriklikka, olam va odamga, jamiyatga munosabatini badiiy obraz va xilma-xil detallar yordamida badiiy aks ettiradi.

F. Karimova o‘zining “O‘zbek adabiyotida debocha” nomli tadqiqotida “Badoye’ ul-bidoya” devoni debochasida 17 ta ruboiy borligi haqida ma’lumot beradi<sup>22</sup>. Lekin izlanishlarimiz debochada 17 ta emas, balki 21 ta ruboiy borligini ko‘rsatdi. Mazkur ruboilyardan 19 tasi *musarra'* va faqat ikkitasi *xasiy* ruboiy hisoblanadi.

Debochadagi ruboilar hamd, munojot, hasbi hol, ishqiy, ijtimoiy va madh, uzrxohlik mavzularida bitilgan. Debochani hamd mazmunidagi quyidagi ruboiy boshlab beradi:

*Subhonallohu huval-aliyul-mutaol,  
Kim ayladi ishq bahrini molomol.  
Insonni chu anda soldi g‘avvos misol,  
Ham gavhari hol berdi, ham durri maqol.*

Ruboiyda Olloh bu olamni ishq tufayli yaratgani, ishq dengizida insonni g‘avvos qilgani va unga so‘zlash imkoniyati hamda Olloho tanish gavharini bergenligi bilan bog‘liq fikrlar bayon etilgan. Ruboiy qofiyalanishiga ko‘ra, *musarra'* bo‘lib, undagi “*mutaol, molomol, misol, maqol*” qofiyalari mumtoz qofiyaning ridfli muqayyad turiga turiga kiradi. Raviy (“l” harfi)dan so‘ng qo‘shimchalarining qo‘llanilmayoiganligi uning muqayyad ekanligiga dalolat qilsa, raviy harfidan avval cho‘ziq “o” unlisi (ridfi asliy)ning kelishi uning murdaf ekanligini ko‘rsatyapti.

Debochadagi yakunlovchi ruboiy munojot mazmunida bo‘lib, unda mutafakkir shoirning Yaratganga qilgan iltijolari o‘z ifodasini topgan:

*Kom ayla Navoiyg‘a fanoni, yo Rab!  
Chun bo‘ldi sening yo‘lingda fony, yo Rab!  
Lutf ayla baqoyi jovidoniy, yo Rab!  
Ul dam sen bil, ne qilsang oni, yo Rab!*

---

<sup>22</sup> Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – Б. 72.

Ma'lumki, ruboiy o'ziga xos maxsus vaznda yoziladi. Bu hazaj bahrining axrab va axram shajarasidir. Bu haqda Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida shunday yozadi:

*"Ruboiy vaznikim, oni "dubaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab" idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va vaznedur bag 'oyat raboyanda". Hazaj bahrining axrab shajarasi 12 vaznni, axram shajarasi yana 12 vaznni o'z ichiga oladi va ushbu jami 24 vazn ruboiy vaznlari hisoblanadi. Ruboiyning she'riy o'lchovi bilan bog'liq muhim xususiyat shundaki, boshqa she'riy janrlardan farqli o'laroq, ruboiyning to'rt misrasi mazkur shajaralarga mansub 4 vaznda yozilishi mumkin. Debochadagi ruboilyarning aksariyati hazaj bahrining axrab shajarasida yaratilgan.*

Debochadagi Husayn Boyqaro madhiga bag'ishlangan ruboiyning vaznini ko'rib chiqsak:

*Oliy nasabi bila quvonib xonlar,*  
— — V/ V— V — /V — — / —  
*Tun-kun eshigini yastanib xoqonlar,*  
— — V/ V— V — /V — — / —  
*Oy-yil qadamida bosh qo'yub qoonlar,*  
— — V/ V— V — /V — — / —  
*Jonlar bila qullug'in qilib sultonlar.*  
— — V/ V— V — /V — — / —

Ushbu ruboiyning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida, uchinchi misrasi esa *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida yozilgan. Ruboiy uchun tanlangan mutlaq qofiyalar (*xonlar, xoqonlar, qoonlar, sultonlar*) uning uchinchi va to'rtinchi ruknlari solim va abtar bo'lishini taqozo qilyapti.

Debochada masnaviy shaklida yaratilgan she’riy parchalar miqdori ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, masnaviy arabcha “ikkilik” ma’nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi va *a-a, b-b, v-v...* tarzida qofiyalanuvchi she’r turidir. Navoiy o‘zining “Sab’ai sayyor” dostonida bu janrnı alohida tavsiflab, uni “vase” – keng maydon deb ataydi:

*Masnaviykim, burun dedim oni,  
So ‘zda keldi vase’ maydoni.*

Mumtoz adabiyotimiz tarixida yaratilgan masnaviylarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- 1) *lirk masnaviy* (shoirning lirk kechinmalari, his-tuyg‘ulari ifoda etiladigan she’r shakli);
- 2) *epik masnaviy* yoki doston (syujet asosiga quriladigan katta hajmli asar).

Debochadan 9 ta masnaviy o‘rin olgan bo‘lib, ularning umumiy hajmi 70 baytni tashkil qiladi. Masnaviylarning eng kichigi 2 bayt, eng kattasi 18 baytni tashkil qiladi. Ularni mazmuniga ko‘ra na’t, madh, hasbi hol, tarjimai hol kabilarga ajratish mumkin. Masnaviylarda devon tartib berish bilan bog‘liq masalalar: Husayn Boyqaroning shoirni devon tuzishga rag‘batlantirgani, shoirning salaflar ijodiga munosabatidan tashqari, buyuk ijodkorning tarjimai holi bilan bog‘liq ma’lumotlar ham keltirilganki, bu shoir biografiyasini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, debochadagi shartli ravishda beshinchı deb raqamlaganimiz masnaviyda shoir o‘z ota-onasi temuriylar saroyida yuqori mavqedá bo‘lganliklari haqida shunday ma’lumot beradi:

*Otam bu ostoning xokbezi,  
Onam ham bu saro bo ‘ston kanizi.*

*Manga, gar xud bo ‘lay bulbul, vagar zog’,  
Kim ushbu dargah o ‘lg ‘ay gulshanu bog’.*

*Vale umre bu gulshandin havodis  
Qilib jonimga hijron ranji hodis (17-bet).*

Shuningdek, yana bir masnaviyda shoir yigitlik chog‘ida ishq ko‘chasiga kirgan vaqtlaridagi hissiyot va kechinmalarini shunday yodga oladi:

*Tun-kun ayog ‘im yalang, yoqam chok,  
Mayxona yo ‘lida mastu bebok.*

*Har dam etibon falakka huyum,  
Avbosh ila barcha guftugo ‘yum.*

Ushbu masnaviyda ishq bodasidan mast bo‘lgan haqiqiy oshiq ichki kechinmalarining tasviriga guvoh bo‘lamiz. Ishq ko‘chasiga kirgan oshiq oyoq yalang, yoqalari yirtilgan qiyofada tunu kun mayxona yo‘lida mast-alast yuradi. Uning ko‘chadagi sayoq daydi-devonalar bilan gap-so‘z talashishlari, nolafig‘onlari osmonu falakka etadi.

Debochadagi masnaviylarning vazn xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular asosan aruz tizimining *hazaj*, *mutaqorib*, *xafif*, *ramal* kabi bahrlarida yaratilganligiga guvoh bo‘lamiz. Debochadan o‘rin olgan dastlabki masnaviy na’t mazmunida bo‘lib, hazaj bahrining *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan. Masnaviyning dastlabki baytlarini taqtı’ bilan birga ko‘rib chiqsak:

*Muhammadkim, rusul anjumdur, ul oy,*

*V – – – / V – – – / V – –*

*Qayu oy, balki mehri olamoroy.*

*V – – – / V – – – / V – –*

*Vujudining tufayli to ‘qquz aflok,*

*V – – – / V – – – / V – –*

*Bu da ’vo shohidi manshuri «lavlok».*

*V – – – / V – – – / V – –*

*Olib yuz barqdin sur'at samandi,*  
V - - - / V - - - / V - -  
*YAngi oy ul oy samandi siynabandi.*  
V - - - / V - - - / V - -

Hazaj bahri vaznlari o‘ynoqi, yoqimli ohangga ega bo‘lishi tufayli ham mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, uning olti ruknli (musaddas) vaznlari ham lirik, ham liro epik she’riyatning sevimli vaznlaridan hisoblanadi. Debochadagi 9 masnaviydan 5 tasi aynan shu bahr vaznlarida bitilganligi fikrimizni dalillaydi.

Debochadagi Husayn Boyqaro madhiga bag‘ishlangan masnaviy esa mutaqorib bahrining mutaqoribi musammani mahzuf vaznida bitilgan:

*Nechukkim qamar tegrasida nujum*  
V - - / V - - / V - - / V -  
*Ulus ul quyosh sori:qildi hujum.*  
V - - / V - - / V - - / V -  
*Jahon mulkatining ulug‘beklari,*  
V - - / V - - / V - - / V -  
*YAna poyada o‘rtarog‘deklari.*  
V - - / V - - / V - - / V -  
*Ulug‘neyu, o‘rta nekim, xosu om*  
V - - / V - - / V - - / V -  
*Rafî’ostonig‘a aylab xirom.*  
V - - / V - - / V - - / V -

Debochadan bitta qit'a shakliga ega she’riy parcha ham o‘rin olgan. Ma’lumki, qit'a (ar. “parcha”, “bo‘lak”, “qism”) 2 baytdan bir necha baytgacha hajmda bo‘lgan, faqat juft misralari qofiyalanadigan (*ba*, *va*, *ga* ...) baytli she’r

shakli hisoblanadi. Qit'a, asosan, falsafiy, ijtimoiy va axloq-odob bilan bog'liq mavzularda yaratilgan. Shuningdek, qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida "qissadan hissa" tarzida ham keltirilgan.

Yuqoridagi qit'a shoirning devon tartib berish bilan bog'liq tamoyillaridan birini izohlab kelgan:

"Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo rasul alayhis-salom na'tidin, yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodurur. Agar lahzae bu saodat muyassar bo'lmasa, har mutaayyin amr iftigohida xud ne nav' tag'oful va takosul ravo ko'rulgay:

*Garchi erur Tengri taolo so 'zi  
Boshtin-ayog 'ig 'a kalomi qadim.*

*Ko 'rki, erur avvali har suraning  
«Bismillohir-rahmonir-rahim».*

Navoiy bu o'rinda muayyan she'riy asar Alloh hamdi yoki Payg'ambar (s.a.v) na'ti bilan boshlanishi zarurligiga ishora qilyapti. Ushbu qit'a sari' bahrining *sari' musaddasi matviyi makshuf* vaznida bitilgan bo'lib, bu vazn keyinchalik shoirning "Hayrat ul -abror" dostonida qo'llanilgan. Aynan shu doston ham qit'ada ta'kidlanganidek, *Bismillohir-rahmonir-rahim* ilohiy jumlesi bilan boshlanadi.

Debochada to'rtlik shaklida yaratilgan ikkita she'riy parcha ham uchraydi. Ularni to'rtlik deb atashimizga sabab, ushbu parchalar vazn va qofiyalanish nuqtai nazaridan boshqa kichik lirik janrlar: qit'a, ruboiy, tuyuq va fardlardan farq qiladi. Ulardan birini ko'rib chiqsak:

*Birovki, ishq-u may ilgida mubtalo bo'lg'ay,  
Ne tong, agar anga har lahza yuz balo bo'lg'ay.*

*Agarchi sa'b balodur, vale budur tilagim,*

*Ki bu balo manga bo'lg'ay hamisha, to bo'lg'ay.*

Ushbu to'rtlik “ishq barqi” sabru qarorini kuydirgan oshiqning kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lib, shoir bunda yigitlik vaqtidagi holatiga ishora qiladi va to‘rtlik so‘ngida agar unga ishqu may tufayli sa'b va balo yuzlanadigan bo‘lsa, bu balo umrining oxirigicha tark etmasligi uning tilagi ekanligini ta’kidlaydi. Bu tilak bizga “Layli va Majnun” dostonidagi Majnunning Ka'bada Ollohga uning ishqini yanada kuchaytirishini so‘rab, qilgan munojotini eslatadi.

To‘rtlik xuddi ruboiy singari *a-a-b-a* tarzida qofiyalangan, lekin unda qo‘llanilgan vazn ushbu parchaning ruboiy janriga mos kelmasligini ko‘rsatadi. Uning bir baytini taqtin bilan birga ko‘rib chiqsak:

*Birovki, ishqu may ilgida mubtalo bo'lg'ay,*

V – V – / V V – – / V – V – / – –

*Ne tong, agar anga har lahza yuz balo bo'lg'ay.*

V – V – / V V – – / V – V – / – –

Taqtin dan ayon bo‘lyaptiki, ushbu she’riy parcha mujtass bahrining *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* vaznida yozilgan ekan.

Debochada bir baytdan iborat she’riy parchalar ham mavjud bo‘lib, ularning miqdori 10 ta. Biz ularni shartli ravishda fard deb atadik. Baytlar mazmunidagi tugallik va ularning qofiyalanish tizimi shunday xulosa qilishimizga olib keldi.

Ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

*Kulmakka o‘rganur el har so‘zki desa majnun,*

*Ul so‘zni jam’ qilsa, kulmakni istar afzun...*

*Devonaki, mast bo‘lsa doyim,*

*Kulmakka erur so‘zi muloyim...*

Ushbu parchalar shoirning “devon tuzishga hali vaqt erta, zero devonaning devon tartib berishda o‘z haddini bilishi kerak” mazmunidagi fikrlarini asoslab keladi. She’riy parchalarning birinchisi Muzori’ bahrining muzori’ musammani axrab vaznida yaratilgan:

*Kulmakka o ‘rganur el har so ‘zki desa majnun,*

– – V / – V – – / – – V / – V – –

*Ul so ‘zni jam’ qilsa, kulmakni istar afzun.*

– – V / – V – – / – – V / – V – –

Navbatdagi she’riy parcha esa hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida yozilgan:

*Devonaki, mast bo ‘lsa doyim,*

– – V / V – V – / V – –

*Kulmakka erur so ‘zi muloyim.*

– – V / V – V – / V – –

Umuman olganda, “Badoye’ ul-bidoya” devoni uchun bitilgan debochaning poetikasini o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Alisher Navoiy o‘z devoni debochasida devon tuzish tamoyillarini ham ilmiy, ham badiiy tarzda bayon etdi.
2. Shoir debochada devon tartib berishning besh tamoyilini ko‘rsatdi. Bular: devonni g‘azallar bilan boshlash, g‘azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (Ҷ – chim, й – je, Қ – gof va Ҳ – lom-alifni ham qo‘sghan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg‘ambarga na’t mavzusidagi g‘azallarni joylashtirish, g‘azallarga ma’rifat va mav’iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g‘azal matla’sida keltirilgan fikrni maqta’gacha rivojlantirib borishdan iboratdir.

3. Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” devoniga yozgan debochasi shoirona fikrlashning betakror namunasi bo‘lib, debochada 31 o‘rinda she’riy parchalar keltirilgan.
4. Debochadagi she’riy parchalarni devon mazmuni va maqsadini yoritishiga xizmat qilishiga ko‘ra, quyidagicha tasnif qilish mumkin:
  - 1) Hamd mazmunidagi she’rlar.
  - 2) Na’t mazmunidagi she’riy parchalar.
  - 3) Munojot mazmunidagi she’rlar.
  - 4) Hasbi hol mazmunidagi baytlar.
  - 5) Zamona hukmdori madhi aks etgan she’riy parchalar
  - 6) Devonni tartib berishdan maqsadni bayon qiluvchi she’riy parchalar.
  - 7) O‘zidan avval va o‘zidan keyin keladigan jumlalar o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan va ayni damda ikkala qismni ham to‘ldiruvchi baytlar.
  - 8) Qissadan hissa tarzidagi xulosa baytlar.
5. Debochadagi she’riy parchalar ruboiy, masnaviy, qit’a, to‘rtlik, fard kabi janrlarda yaratilgan bo‘lib, ularning umumiy hajmi 128 baytni tashkil etadi.
6. She’riy parchalarning eng ko‘pi ruboiy janriga mansub bo‘lib, debochada jami 21 ta ruboiy shaklidagi she’r uchraydi. Ushbu ruboilyarning 19 tasi *musarra*’ yoki *tarona*, 2 tasi *xasiy* yoki *erkin* ruboilyardir.
7. Debochada 9 ta masnaviy shaklida yaratilgan parchalar mavjud bo‘lib, ularning umumiy hajmi 70 baytdan iborat. Masnaviyalar aruz tizimining *hazaj*, *mutaqorib*, *xafif*, *ramal* bahrlarida yaratilgan.
8. Debochadan to‘rtlik va fard shaklidagi she’riy parchalar ham o‘rin olgan bo‘lib, ular aruz tizimining mujtass, muzori’ va hazaj bahrlarida yaratilgan.

## **II BOB. “XAZOYIN UL-MAONIY” KULLIYOTI UCHUN TUZILGAN DEBOCHANING BADIY XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Debocha – kulliyot janrlari uchun badiiy ochqich sifatida**

Alisher Navoiy 1492-1498 yillarda Husayn Boyqaroning taklifi bilan o‘zining barcha she’rlari, jumladan, avvalgi rasmiy devonlariga kirgan she’rlarini ham to‘plib, “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasi”) nomli yirik kulliyot yaratadi. Kulliyot to‘rt devonni o‘z ichiga olganligi uchun “Chor devon” deb ham yuritiladi. Kulliyotning Sankt-Peterburg (1498-99, inv. Xanikov-55; 1592-96, inv. Dorn-558), Istanbul (1495-97, xattot Darvesh Muhammad Toqiy ko‘chirgan, inv. № 808), Parij (1525-27, kotib al-Hijroniy ko‘chirgan, inv. № 316-317) nusxalari mavjud bo‘lib, ular asosida professor H.Sulaymonov kulliyotning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi (1959-60). Mazkur matn MATning 3-6 jildlarini tashkil etuvchi devonlar uchun asos bo‘lgan.

Kulliyotga shoirning avvalgi ikki devoni – “Badoye’ ul-bidoya” va “Navodir un-nihoya”ga kirgan she’rlari, shuningdek, keyingi yillarda yaratilgan va turli sabablarga ko‘ra avvalgi devonlarga kirmay qolgan turli janrlardagi she’rlari kiritilgan. XV asr lirkasining buyuk qomusi deb baholangan “Xazoyin ul-maoniy” ulug‘ shoirning deyarli butun hayoti davomida yaratgan va lirk turning 16 janriga mansub bo‘lgan she’rlarini o‘z ichiga oladi. U faqat mazmun-mundarijasi bilan emas, balki tuzilishi va nomlanishi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Kulliyotda Alisher Navoiy to‘rt devonning har biriga inson umrining fasllariga moslab nom berdi. Shu ma’noda 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining bahori deb atadi va kulliyotning birinchi devonini “G‘aroyib us-sig‘ar” (“Bolalik g‘aroyibotlari”) deb nomladi. 20 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan davrni inson umrining yozi deb belgiladi va “Navodir ush-shabob” (“Yigitlik nodirliklari”) deb atadi. 35-45 yoshni umrining kuziga qiyos etdi va “Badoe’ ul-vasat” (“O‘rta yosh go‘zalliklari”) deb nomladi. 45-60 yoshini umrining qishiga o‘xshatib, “Favoyid ul-kibar” (“Keksalik foydalari”) deb atadi. Har bir

devonga 650 tadan g‘azal kiritdi, shunga muvofiq boshqa she’riy janrlarga ham joy ajratdi.

Shoir kulliyot uchun maxsus debocha ham yozgan. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonining boshlanish qismidan o‘rin olgan bu debocha mukammal kompozitsion qurilishga ega. Debochada dastlab Xoliq hamdi, Rasululloh na’ti keladi. Shoir o‘z ahvoli, a’moli bayonini bevosita hukmdorga bog‘lab turib, eng samarali usulni qo‘llaydi: ham an’anaviy tarzda Sulton sohibqiron Husayn Boyqaroni madh etadi, ham Husayn Boyqaroning ushbu devonlarni tuzish borasidagi amri va da’vatini bayon qiladi. Debochada Navoiy lirik asarlarining yozilishi bilan bog‘liq jihatlarni to‘g‘ri mushohada qilishga imkon beradigan ma’lumotlar juda ko‘p. Unda “Xazoyin ul-maoniy”ning mazmun-mundarijasi, tarkibidagi devonlar, ularning yaratilish tarixi, shoir adabiy-estetik qarashlariga oid masalalar hamda shoirning hasbi holi bilan tanishish mumkin. Shuningdek, debochada shoir muayyan fikrini umumlashtirish, xulosalash uchun ruboiyidan unumli foydalanadi. Debochaning o‘zida 30 ta ruboiy keltirilgan, jumladan, Xoliq hamdi, Rasululloh na’ti, Sulton Husayn Boyqaro madhi, shoirning o‘z sharhi holi, devoni tavsifiga aloqador fikrlari ushbu janrning talablaridan kelib chiqib ifoda topgan. Ruboiylarda falsafiy-axloqiy mazmun ustuvorlik qiladi.

F.Karimova debocha kompozitsiyasini tashkil etgan masalalarning joylashish tartibini 8 qismga ajratib ko‘rsatadi<sup>23</sup>:

1. Hamd-u sano va na’t. Bu qismda shoir insonni hayvondan ajratib, unga “nutq ila nazm ehtiromi” bergan Qodiri mutlaqni va Payg‘ambar (s.a.v.)ni madh etadi: “Shukru sipos ul qodirg‘akim, chun adam osoyishgohidin vujud oroyishi ogohlarig‘a jilva berdi, insonni soyir maxluqotdin nutq sharafi bila mumtoz qildi.

R u b o i ya:

*Ulkim, chu jahon xilqatin og‘oz etti,*

---

<sup>23</sup> Bu haqda qarang: Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO’Z, 2008. – Б. 52.

*Sun'i kilkini naqshpardoz etti.  
Inson xaylin nutq ila mumtoz etti,  
Nutq ahlini nazm ila sarafroz etti<sup>24</sup>.*

2. “Xazoyin ul-maoniy”ning tartib berilish sabablari. Bunda shoir dastlab tartib bergen ikki devoni haqida gapirib, keyingi davrda aytilgan she’rlari ham hajm jihatdan ulardan ko‘pligini ta’kidlaydi. Zamon hodisalari tufayli yo‘qolib ketmasligi uchun ularni tartibga solish zarur edi: “Va ikki murattab bo‘lg‘an devonlardin yangi aytilg‘an abyot adadi aksar va har bayti lafzu ma’no bila darjlig‘ gavhar demaykim shu'lalig‘ ozar; xotirg‘a kelur erdikim, agar bu avroqqa rabtu tartib berilmasa, bir havodis tundbodi eskach, har sahfasin bir yonsovurg‘ay va agar bu gulbarglarni zebu oyin bila bir guldasta bog‘lanmasa, bir navoyib nasimi etkach, har varaqin bir yon uchurg‘ay. Va agar rabtu tartibini havas qilsam, havasimg‘a qayda ul quvvatki, ikki baytni bir-biriga marbut bog‘lashtura olg‘ay va xayolimda qayda ul jamiyat holatki ikki lafzin bir-biriga yarashtura olg‘ay. Bu ajzdin xomam tili lolu bu zabunluqdin o‘z tilim shikasta maqol erdikim, nogah inoyat nasimi hidoyat gulshani royihasin etkura kirishti va saodat munhiysi davlat ravzasi mujdasin keltura boshladi, ya’ni hukmi qazojarayonu farmoni vojib uliz’on bu banda otig‘a ul Sulton sohibqirondin etishtikim, qullari hukmidin azim ushsha’n salotin bosh torta olmaslar va bandalari farmonidinnofizi farmon xavoqin bo‘yun to‘lg‘ay olmaslar” (11-12-betlar).

3. Husayn Boyqaroning Navoiy va uning ijodiga munosabati. Navoiy ijodi bilan doimiy ravishda qiziqib borgan Husayn Boyqaro shoirga barcha she’rlarini to‘plab, to‘rt devon tuzish haqida farmon beradi. Shoирning sog‘lig‘idan xabardor bo‘lgan shoh unga xar tomonlama yordam berishga va’da beradi: “Bu yanglig‘ falaktazyin dargohdinu bu nav’ arshoyin bargohdin xitobi sadmatomizu hukmi hayratangiz etishti. Mazmuni bukim, ey qadimiy bandayi

<sup>24</sup> Алишер Навоий. Фаройиб ус-сигар. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988. Ж.3. – Б.9. (Бундан кейинги иктибослар шу нашрдан олинади ва асар саҳифаси кавс ичидаги кўрсатилади).

xosu ey boyiriy xodimi zaviy-ul-ixtisos, burung‘i ikki devonkim, bizning hukmu xitobimiz bila murattab qilding va kulliyotu juzviyotin bizning mashvaratu ta’limu istisvobimiz bila tuzattingkim, birining ishqomiz abyotidin bu eski dayrning rafi’ toqida ushshoqning sho‘ru g‘avg‘osidur va yana birining shavqangiz g‘azaliyotidin bu qadimiy mani’ gunbad ravoqida muhabbat ahlining xo‘yu alolosi. Andin so‘ngra yig‘ilg‘an ash’orningu nazm rishtasig‘a tortilg‘an durri shahvorning adadi burung‘i devonlardin ortqan chog‘lig‘durur va bu latofati sifoti xo‘blar va malohati simoti mahbublar bila yana ikki devon tartib bersa bo‘lurdek ma’lum bo‘ladur... Emdi avlo budurkim, bu g‘arib ishga ko‘ngul kelturgaysen, balki hukm bu erurkim, bu ajib amrg‘a xoma surgaysenu tafakkur xilvatgohida xayol sho‘xu ra’nolari bila bazm tuzgaysen va to falak gardish qilur bashar jihsining xayolig‘a kelmagan a’jubani elga ko‘rguzgaysen. O‘zung bilursenkim, nazm harimining xoslariyu she’r bahrining g‘avvoslarikim, ruhparvar navolig‘ anfoslaridin zamona bazmi to‘lubtur va xayol daryosidin chiqarg‘on qiymatiy guharlaridin davron libosi javohir bila murassa’ bo‘lubtur, hech qaysi olamning rub’i maskunin ola olmaydur va to‘rt gavhardin murakkab bo‘lg‘an bashar xayli hech qaysidin to‘rt devon yodgor qolmaydur” (12-13-betlar).

4. “Xazoyin ul-maoniy”ning yaratilish tarixi. Navoiy bevosita Husayn Boyqaroning moddiy va ma’naviy ko‘magi tufayli barcha she’rlarini to‘plab, ularni tahrir qiladi va ular yoniga yangilarini yozib qo‘sadi. Bu she’rlarni shohning “kimyo asar nazari”dan o’tkazadi. Nihoyat, barcha lirik she’rlarini jamlab to‘rt devon tuzadi va uni “Xazoyin ul-maoniy” deb nomlaydi :

*Yuz hur sifat barchasining nozu fani,  
Kashmiriyu rumiyyu xitou xo‘taniy,  
Kim bir shah uchun keturgay ul toyifani,  
Tojir o‘zin aylarga baho birla g‘ani.*

- kashmiriysi sehrsozlig‘da dilrabovu dilkash va rumiysi turktozliqda kofiroynu farangiyvash va xitoyisi xunrezlig‘da novakzanu shershikor va xo‘taniysn

fitnaangizlig‘da sherafkanu g‘izolakirdor, bu shamoyilu oyin bila va bu zebolig‘u tazyin bila Sultoni sohibqironning harami saroyig‘a kiyurur erdim va birin-birin ul hazratning kimyoasar nazarig‘a etkurur erdim” (17-bet).

5. “Xazoyin ul-maoniy”ning tuzilishi. Shoир yil fasllari va inson umriga monand to‘rt devonini to‘rt xil nom bilan ataydi. Ya’ni birinchi devon “G‘aroyib us-sig‘ar”, ikkinchi devon “Navodir ush-shabob”, uchinchi devon “Badoe’ ul-vasat”, to‘rtinchi devon “Favoyid ul-kibar” deb nomlangan. Shuningdek, shoир har bir devoniga kirgan she’rlarining yosh chsgaralarini ham ko‘rsatadi: “To‘rt faslining muqobalasidakim, to‘rt devon voqi’ bo‘luptur, har qaysig‘a bir - munosib ot darboyist edi, ul sababdin avvalg‘i devonnikim, tufuliyyat bahori g‘unchasining ajib gullari va sig‘ar gulzorining bog‘chasining g‘arib chechaklari bila orosta bo‘lub erdi, “G‘aroyib us-sig‘ar” deyildi. Va ikkinchi devonnikim, yig‘itliku oshuftalig‘ va shabobu oliftalig‘ yoziyu dashtida yuzlangan nodir vaqoyi’ bila piyrosta bo‘lub erdi, “Navodir ush-shabob” ataldi. Va uchunchi devonnikim, vasat-ul - hayot mayxonasida ishq bila shavq paymonasidin yuzlangan badii’ nishotlar kayfiyatini yozilib erdi. “Badoyi’ ul-vasat” ot qo‘yuldi. Va to‘rtunchi devonnikim, umrning oxirlarida yuzlangan ishq dardu ranji foyidalarikim, jonso‘z oh urmoqu jon topshurmoqdurkim, anda sabt bo‘lubtur, “Favoyid ul- kibar” laqab berildi”.

6. Shoirning o‘z ijodi haqidagi fikrlari. Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ni yaratishga sarf etgan yillar davomida “Xamsa” nazmi bilan shug‘ullanganligi, “Nazm ul-javohir”, “Majolis un-nafois”, “Zubdat ut-tavorix” va “soyir tasnif”lar bitganligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda badiiy ijod sohasida erishgan yutuqlaridan nihoyatda mamnun ekanligini faxriya usulida bayon qiladi: Va bu avqot mobaynida har miqdorkim, fursat toptim, xoh “Xamsa” nazmidinu xoh “Nazm ul-javohir” va “Majolis un-nafois”u “Zubdat ut-tavorix” va soyir tasniflar ishtig‘olidin ham ul hazrat duoyi davlatig‘a avqotimni sarf qildim. Va bihamdilloh andoq murodlar kasb ettimkim, mening abnoyi jinsimning yuzidin biriga muyassar bo‘lmaydur va andoq maqsudlarg‘a ettimkim, alarkim, mendek yuz, balki ming

qullari bor erdi, birining sog‘ari orzusi menga nishot etkurgan may bila to‘lmaydur” (19-20-betlar).

7. Keksalikdagi sog‘ligining yomonlashganligi haqida. Shoir yoshi ulg‘aygan chog‘da turli kasalliklar yopishganligi va shu davrdagi ahvoli nihoyatda og‘irligi haqida bat afsil xabar beradi: “Qulluq arzadosht ulkim, bu bandag‘a yosh ulg‘ayg‘an chog‘da za’fe yuzlandi, va ul za’f rishtasi rishtadek za’flig‘ paykarimg‘a andoq chirmandikim, ul quyoshdek zamirg‘a ravshandur. Holo mizojim istiqomatdin munharifu badanimda necha marazi muxtalifdur va atibbo ilojimdin ojiz-u ma’zul va ahibbo mizojimdin mutaajjibu malul. Dimog‘im parishonlig‘idin so‘zum nomarbutu xayolim oshuftalig‘idin holim nomazbut. Bag‘rim qizig‘anidin jismimda hummoysi lozim va ko‘nglum ozg‘anidin boshim aylanmog‘iyu ko‘zum qorarmog‘i doyim. Ne tongdin aqshomg‘acha o‘zumga bir dam g‘izodin kom, ne aqshomdin tongg‘acha tarfat-ul-ayne ko‘zumga uyqudin orom. Xotirim savdoomiz xayollardin mushavvash, besarudilliqdin har necha dilkash so‘z bo‘lsa ko‘nglumga noxush. Me’damning hazm qilur g‘izosi zamona ahlining izosi, ko‘nglumning nishot bazmida mayi nobi falak tiyg‘i oqizg‘an bag‘ir xunobi”.

8. Xotima. Bu qismda shoir go‘yo Sulton sohibqironning davlatli dargohida o‘tgan umriga yakun yasagandek tuyuladi. Husayn Boyqaro davlatidagi xizmatlarini “din va oxiratim sharafi” deb bilgan Navoiy debochani duo, tilak xarakteridagi uch ruboiy bilan yakunlaydi: “So‘zum uzaldiyu ado qiladurg‘an maqsudum yiroq qoldi. Agarchi xomamning gavharafshonlig‘ig‘a nihoyat yiroqdur va lekin duo gavharfishonlig‘i bila ixtisor qilmoq yaxshiroq.

R u b o i ya:

*To dahr uza bu gunbadi davor o ‘lg‘ay,*

*Ul gunbad uza sobitu sayyor o ‘lg‘ay,*

*To sobitu sayyorg‘a osor o ‘lg‘ay,*

*Tengri bori holingda nigahdor o ‘lg‘ay.*

R u b o i ya:

*Taxting bo 'lsun sipehri axzar chog 'lig',  
Chatring rif'atda mehri anvar chog 'lig'.  
Mulkung baru bahr aro Sikandar chog 'lig',  
Lekin umrung Nuh payambar chog 'lig'.*

R u b o i ya:

*Ham dargahing iqbol makoni, yo Rab,  
Ham boshing uza toji Kayoniy, yo Rab.  
Jomingda ziloli zindagoniy, yo Rab,  
Andin sanga umri jovidoniy, yo Rab.*

Darhaqiqat, yuqoridagilardan ma'lum bo'lyaptiki, debocha kompozitsiyasidagi masalalar bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, unda birorta ham qismning ortiqchaligini sezmaymiz, ushbu masalalar o'z navbatida "Xazoyin ul maoniy" kulliyoti tarkibidagi devonlar uchun ham ochqich vazifasini o'tagan.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" debochasida qo'yilgan masalalarning keng ko'lamliligi va ularni joylashtirish tartibidagi izchillik hamda bayondagi uslubiy etuklik uning kompozitsiyasiga har tomonlama mukammallik bag'ishlagan. Zero, "Xazoyin ul-maoniy"ga bitilgan debocha o'zbek adabiyotida yaratilgan g'oyaviy, badiiy jihatdan yuksak devon debochalarining eng go'zal namunasidir.

## 2.2.Debochadagi she'riy parchalar poetikasi

Agar "Badoyi" ul-bidoya" devoni uchun yozilgan debochada she'riy parchalar bir nechta janrlarda bitilgan bo'lsa, "Xazoyin ul-maoniy" uchun

yaratilgan debochada keltirilgan she’riy parchalar faqat ruboiy janriga mansubligini kuzatish mumkin. Bu o‘rinda inson umrining to‘rt fasliga monand “Xazoyin ul-maoniy” ham to‘rt devondan tashkil topganligi bilan ruboiyning to‘rt misradan iborat ekanligi o‘rtasida mantiqiy mutanosiblik borligini eslasak, Navoiy dahosiga yana bir bor tahsin o‘qiymiz.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi debochada 30 ta ruboiy mavjud bo‘lib, ularning hammasi tarona, ya’ni barcha misralari o‘zaro qofiyalanuvchi ruboilyardan iborat. Debochalar tarkibida ruboilyarning ko‘p qo‘llanishi uning janr xususiyatlari bilan bog‘liq. Ya’ni to‘rt misrada fikrni ixcham va chuqur ma’noli ifoda qila olish imkoniyatining mavjudligi sababli shoir debochada aynan shu janrga murojaat qiladi.

Devon tuzish ulkan mas’uliyat talab qiluvchi ish ekanligini va umrining keyingi davrlarida shoirning sog‘lig‘i yomonlashganligini hisobga olsak, Navoiyning bu to‘rt devondan iborat to‘plamni yaratishdagi chekkan zahmatlari, mehnat va mashaqqatlari yanada ravshanroq namoyon bo‘ladi. Ana shu mehnat va mashaqqatlarining mevasi sifatida bunyodga kelgan to‘rt devonni yilning to‘rt fasli va inson umrining to‘rt davriga monand nomlar bilan ataydi. Shoir ana shu devonlarni tuzishga umrining barcha qismini sarf etganligini to‘rt misralik ruboiyda muxtasar shaklda ifoda etadi:

*Sarf ettim anga umr bahorin dag‘i,  
Bo‘stoni hayotu lolazorin dag‘i,  
Ollida xazoni zarnisorin dagi,  
Kofurfishon qish bila qorin dag‘i (19-bet).*

Navoiy bu fikrni she’riyatning boshqa shaklida ham ifoda etishi mumkin edi. Lekin Navoiy o‘zidagi so‘zga bo‘lgan o‘ta talabchanlik, so‘zni behuda ishlatmaslik, oz so‘z bilan ko‘p ma’no ifodalashga intilish kabi xislatlar tufayli bu fikrni ruboiyda berishni ma’qul ko‘rgan. Ruboiy juda katta mahorat bilan

yaratilgan bo‘lib, undagi har bir qofiya, radif shunday san’atkorlik bilan tanlanganki, ularning har biri o‘ziga xos ma’no tashiydi.

Debochalar ko‘proq ijodiy-biografik xarakterda bo‘lganligi uchun unda keltirilgan she’riy parchalar ham shoir hayotining muayyan davrlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham ularni baholashda shu davrdagi aniq voqeа-hodisalar va holatlar hisobga olinishi kerak. Aks holda umumlashma darajasiga ko‘tarilgan muayyan fikrlarni tushunish, anglash qiyinlashadi. Masalan, Husayn Boyqaro Navoiy gazallarini o‘qib, ularni tahlil qilgan. Isloh qilingan misra va baytlarni shoir go‘zal tashbixdar orqali shunday tasvirlaydiki, bu o‘z navbatida, Husayn Boyqaroga bo‘lgan munosabatni belgilashda ham muhimdir:

*Xoro orasinda erdi gavhar yanglig‘,  
Yo kumar ichinda erdi axtar yanglig‘,  
Yoxud tikan ichra guli ahmar yanglig‘,  
Balkim tan aro ruhi musavvar yanglig‘*

Kulliyot uchun bitilgan debochani juda go‘zal va boy badiiy vositalar bezab turadi. Bu badiiy vositalar xilma-xil va rang-barangligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Debochada shoirning buyuk so‘z san’atkori sifatidagi mahorati juda yorqin namoyon bo‘ladi. U debochada tashbih, sifatlash, istiora, mubolag‘a, tardi aks, talmih, e’not, tanosub kabi ko‘plab ma’naviy va lafziy san’atlardan keng va unumli foydalanadi.

Navoiyshunos olim Y.Is’hoqov “Navoiy poetikasi” kitobida shoir asarlarida qo‘llangan tashbih, sifatlash, istioralar haqida gapirib, ular klassik she’riyatning qon-qoniga singib, unint zaruriy elementlarga aylanib ketganligini ta’kidlaydi<sup>25</sup>. Darhaqiqat, Navoiy asarlarini, jumladan, debochalarini ham bu poetik san’atlarsiz tasavvur etish qiyin.

Yuqoridagi ruboiy boshdan oyoq tashbihi musalsal asosiga qurilgan. Ma’lumki, **tashbih** ikki narsa yoki tushunchani ular o‘rtasidagi haqiqiy yoki

---

<sup>25</sup> Исхоков Ё. Навоий поэтикаси. - Т.: Фан, 1983. – Б. 208.

majoziy munosabatlarga ko‘ra o‘xshatish san’ati bo‘lib, bu san’at tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani aniqroq va yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Tashbihning tashbihi musalsal (ketma-ket o‘xshatish) degan turida bir narsa ketma-ket bir necha narsaga o‘xshatishga asoslanadi, bunda mushabbah bitta, mushabbahun bih bir nechta bo‘ladi.

Yuqoridagi ruboiyda shoir birinchi misolda isloh qilingan baytlarni oddiy toshlar orasidagi qimmatbaho toshga, ikkinchi misrada kul ichidagi qip-qizil cho‘g‘ga, uchinchi misrada tikanlar orasidagi qizil gulga, to‘rtinchi misrada tanada mustahkam o‘rnashgan ruhga o‘xshatadi. Yuqoridagi “kul ichidagi qip-qizil cho‘g“, “tan aro joylashgan ruh” tashbihlari shoirning original o‘xshatishlaridir.

Ketma-ket keltirilgan tashbihlar orqali Navoiy Husayn Boyqaro isloh qilgan, ayrim tuzatishlar kiritgan misra va baytlarning sifatini nihoyatda oshirib tasvirlamoqda. Bu o‘rinda, albatta, mubolag‘a ham mavjud. Lekin shoirning debocha va boshqa asarlaridagi iqrorlariga ko‘ra, Husayn Boyqaro uning she’rlarini ma’lum darajada tahrir qilganligi, shubhasizdir.

Navoiy she’riyatida keng qo‘llanilgan san’atlardan yana biri **tanosubdir**. Ma’lumki, tanosub baytda ma’no jihatdan bir-biriga aloqador va o‘zaro mutanosib so‘zlarni qo‘llashga asoslangan badiiy san’at bo‘lib, tanosub she’riyatda kechinmalarning yaxlit manzarasini berish, fikrni ma’lum bir nuqtadan aniq va chegaragacha mantiqiy xulosaga etkazish, his-tuyg‘ular tabiatiga mos muntazam ohang topishda keng imkon beradi<sup>26</sup>.

Demak, ma’lum manoda tanosib she’riy asarlarning kompozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan san’atdir. Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” debochasida g‘azal baytlarining kopozitsion izchilligi haqida gapirar ekan, o‘z fikrini dalillash maqsadida quyidagi ruboyni keltiradi:

*Sarf ettim anga umr bahorin dag ‘i,*

---

<sup>26</sup> Ҳакқулов И. Бобир шеъриятида таносиб санъати / Ўзбек тили ва адабиёти, 1981. № 5.– Б.23.

*Bo 'stoni hayotu lolazorin dag 'i,  
Ollida xazoni zarnisorin dag 'i,  
Kofurfishon qish bila qorin dag 'i (19 bet).*

Bu misolda mantiqan bir-birini taqozo qiluvchi bir-birsha ma'nodosh bo'lgan bahor so'zi bo'ston bilan, bo'ston so'zi lolazor bilan, xazon so'zi tikan bilan, kofur so'zi qish va qor bilan uyushtirilgan va chiroyli tanosib san'ati namunasi yaratilgan.

*Sho 'xeki, o 'kush husnu jamol o 'lg 'ay anga,  
Bir husn yana husni maqol o 'lg 'ay anga.  
La 'li aro durlarida gar bo 'lsa qusur,  
So 'z derda kerakki, infiol o 'lg 'ay anga (20-21-betlar).*

Keltirilgan ruboiy ham qat'iy tanosub asosiga qurilgan. Bu ruboiyda bir-birini mantiqan taqozo qiluvchi so'zlar ushtirilgan: *sho 'x - husnu jamol, husn - husni maqol, la 'l* (lab) - *dur* (tish), *so 'z - infiol*.

Endi ruboiy misralarini ko'zdan kechiraylik:

1. Sho'xning husnu jamoli ta'rifga sig'maydi.
2. Shuncha husn ustiga shirin so'z ham.
3. "Lali aro" tishlarida qusur bo'lsa.
4. Shuncha husn bilan so'zlaganda xijolat bo'ladi.

Shoir tomonidan tanlangan va uyushtirilgan har bir so'z ruboiy kompozitsiyasining mantiqan izchil bo'lishini ga'minlagan. Umuman, Navoiy tanosub san'atiga ko'p murojaat qilgan va she'rlarining shakl va mazmun jihatidan mukammal bo'lishiga erishgan.

Debochadagi ruboilarda keng qo'llanilgan she'riy san'atlardan yana biri **talmih** san'atidir. Ma'lumki, talmih arabcha "nazar tashlash, chaqmoq chaqishi" degan ma'nolarni bildirib, nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, she'r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan badiiy san'at

hisoblanadi. Bunda ko‘proq Qur’oni Karim suralarida aks ettirilgan afsona va hikoyalar qahramonlari – payg‘ambarlar, farishtalar nomlari; adabiy asar qahramonlari nomlari, joy nomlari nazarda tutiladi. Talmih san’ati ijodkorga bir ishora vositasida ko‘zda tutilgan fikrni batafsil tarzda ifodalash imkonini beradi.

Debochadagi ruboilyarda talmih san’ati ko‘proq Husayn Boyqaroga murojaat yoki hukmdor madh etilgan o‘rinlarda qo‘llanilgan bo‘lib, shoir talmih qilingan tarixiy nomlar orqali zamona hukmdorini ularga nisbat beradi:

*Taxting bo ‘lsun sipehri axzar chog ‘lig’,  
Chatring rif’atda mehri anvar chog ‘lig’.  
Mulkung baru bahr aro Sikandar chog ‘lig’,  
Lekin umrung Nuh payambar chog ‘lig’.*

Debochadagi ruboilyarning vazn xususiyatlariga diqqat qaratadigan bo‘lsak, ular hazaj bahrining **axrab** va **axram** shajarasiga mansub vaznlarda yozilganligini kuzatish mumkin. Debochadagi birinchi ruboyni vazn nuqtai nazaridan tahlil qilsak:

*Ulkim, chu jahon xilqatin og ‘oz etti,  
– – V/V – – V /V – – / –  
Sun ‘i kilkini naqshpardozi etti.  
– – – / – – V/V – – / –  
Inson xaylin nutq ila mumtozi etti,  
– – – / – – V/V – – / –  
Nutq ahlini nazm ila sarafroz etti.  
– – V/V – V – /V – – / –*

Ushbu ruboiy to‘rt vaznli ruboilar sirasiga mansub bo‘lib, unda ham axrab shajarasi, ham axram shajarasiga mansub vaznlar ishtirot etgan. Xususan, uning

birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* vaznida, ikkinchi misrasi *hazaji musammani axrami ashtari solimi abtar*, uchinchi misrasi *hazaji musammani axrami axrabi solimi abtar* vaznida va to‘rtinchi misrasi esa *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida yozilgan.

Quyidagi ruboiyda esa faqat axrab shajarasiga mansub vaznlar qo‘llanilganligini kuzatish mumkin:

*Shahdin chu bu nav’ lutfu ehson toptim,*

— — V/V — V — / V — — / —

*Ummid dag‘i behadu poyon toptim,*

— — V/V — — V / V — — / —

*Zulmat aro erdim, obi hayvon toptim,*

— — V/V — — V / V — — / —

*Yo ‘q-yo ‘qki, o ‘lub erdim, yangi jon toptim.*

— — V/ V — — V / V — — / —

Ushbu ruboioyning birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida, qolgan barcha misralar esa *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* vaznida yozilgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti uchun bitilgan debochasida nasriy bayon davomida ruboiy janridagi she’riy parchalarni berib boradi. Bu parchalar hazaj bahrining axrab va axram shajarasida bitilgani holda ularda qator she’riy san’atlar qo‘llangan. Shuni ta’kidlash kerakki, Navoiy bu san’atlardan badiiy go‘zallik uchungina foydalanmaydi, balki ularni aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini aniq, ravon va ta’sirchan ifodalashga xizmat qildiradi. Shu bilan birga, ruhiy kechinmalarni real o‘xshatishlar, taqqoslar orqali ifodalab, betakror timsollar yaratadi.

Biz ikkinchi bobdagि masalalarni tadqiq qilish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti uchun bitilgan debocha kulliyot devonlari uchun ochqich vazifasini bajarib, uning kompozitsiyasini gashkil etgan masalalar hamdu sano va na’t; kulliyotning tartib berilish sabablari; Husayn Boyqaroning Navoiy va uning ijodiga munosabati; “Xazoyin ul-maoniy”ning tuzilishi; shoirning o‘z ijodi haqidagi mulohazalari; keksalikdagi sog‘ligining yomonlashganligi haqidagi fikrlar va xotimadan iborat.

2. Kulliyotdagi she’riy parchalar faqat ruboiy janrida bo‘lib, ularning soni 30 ta.

3. Ruboiylarning barchasi *musarra'*, ya’ni tarona tarzida qofiyalangan bo‘lib, bu bevosita inson umrining to‘rt fasliga monand «Xazoyin ul-maoniy» ham to‘rt devondan tashkil topganligi hamda ruboiy janrining ham to‘rt misradan iborat ekanligi bilan bog‘liq.

4. Debochadagi ruboiylarda tashbih, istiora, tanosub, mubolag‘a, tardi aks, talmih, e’not kabi ko‘plab ma’naviy va lafziy san’atlardan keng va unumli foydalanilgan.

## XULOSA

O‘zbek adabiyotida debochalarining paydo bo‘lishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, shoir o‘z forsiy salaflarining she’riy devonlarga debocha yozish sohasidagi tajribalarini chuqur o‘rgandi va ularga ijodiy munosabatda bo‘ldi. Uning ilk rasmiy devoni hisoblanmish “Badoyi’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga yozilgan debochalarini ana shu jarayonning mahsuli sifatida maydonga keldi.

Biz Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlariga bitilgan debochalar poetikasini tadqiq qilish asnosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Alisher Navoiy “Badoyi’ ul-bidoya” devoni debochasida devon tartib berishning besh tamoyili: devonni g‘azallar bilan boshlash, g‘azallarni 28 harf emas, balki 32 harf (Ҷ – chim, Ї – je, Ӯ – gof va Ӯ – lom-alifni ham qo‘shgan holda) bilan tugallash zarurligi, devonga dastavval Allohga hamd yoki Payg‘ambarga na’t mavzusidagi g‘azallarni joylashtirish, g‘azallarga ma’rifat va mav’iza mavzulariga doir baytlar kiritish, g‘azal matla’sida keltirilgan fikrni maqta’gacha rivojlantirib borish bilan bog‘liq masalalarni keltiradi.

2. “Badoye’ ul-bidoya” devoniga yozilgan debocha shoirona fikrlashning betakror namunasi bo‘lib, unda 31 o‘rinda she’riy parchalar keltirilgan. Ushbu she’riy parchalarni devon mazmuni va maqsadini yoritishiga xizmat qilishiga ko‘ra: hamd mazmunidagi she’rlar, na’t mazmunidagi she’riy parchalar; munojot mazmunidagi she’rlar; hasbi hol mazmunidagi baytlar; Husayn Boyqaro madhi aks etgan she’riy parchalar; devonni tartib berishdan maqsadni bayon qiluvchi she’riy parchalar; o‘zidan avval va o‘zidan keyin keladigan jumlalar o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan va ayni damda ikkala qismni ham to‘ldiruvchi baytlar; qissadan hissa tarzidagi xulosa baytlarga ajratish mumkin.

3. Debochadagi she’riy parchalar ruboiy, masnaviy, qit’a, to‘rtlik, fard kabi janrlarda yaratilgan bo‘lib, ularning umumiy hajmi 128 baytni tashkil etadi.

4. She'riy parchalarning eng ko'pi ruboiy janriga mansub bo'lib, debochada jami 21 ta ruboiy shaklidagi she'r uchraydi. Ushbu ruboilyarning 19 tasi musarra' yoki tarona, 2 tasi xasiy yoki erkin ruboilyardir.

5. Debochada 9 ta masnaviy shaklida yaratilgan she'riy parchalar mavjud bo'lib, ularning umumiyligi hajmi 70 baytdan iborat. Masnaviylar aruz tizimining *hazaj*, *mutaqorib*, *xafif*, *ramal* bahrlarida yaratilgan.

6. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti uchun bitilgan debocha kulliyot devonlari uchun ochqich vazifasini bajarib, uning kompozitsiyasini gashkil etgan masalalar hamdu sano va na't; kulliyotning tartib berilish sabablari; Husayn Boyqaronining Navoiy va uning ijodiga munosabati; "Xazoyin ul-maoniy"ning tuzilishi; shoirming o'z ijodi haqidagi mulohazalari; keksalikdagi sog'ligening yomonlashganligi haqidagi fikrlar va xotimadan iborat.

7. Kulliyot debochasidagi she'riy parchalar faqat ruboiy janrida bo'lib, ularning soni 30 ta.

8. Ruboilyarning barchasi musarra', ya'ni tarona tarzida qofiyalangan bo'lib, bu bevosita inson umrining to'rt fasliga monand «Xazoyin ul-maoniy» ham to'rt devondan tashkil topganligi hamda ruboiy janrining ham to'rt misradan iborat ekanligi bilan bog'liq.

9. Debochadagi ruboilyarda tashbih, istiora, tanosub, mubolag'a, tardi aks, talmih, e'not kabi ko'plab ma'naviy va lafziy san'atlardan foydalilanigan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Siyosiy adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009.
3. Каримов И. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил қилиш ҳақидаги фармон // “Халқ сўзи”, 14 май.
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.

### **Matn va manbalar:**

5. Алишер Навоий. Бадоев ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. Т. 1. – 723 б.
6. Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1987. Т. 2. – 620 б.
7. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Ғаройиб ус-сигар. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1988. Т. 3. – 616 б.
8. Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний: Наводир уш-шабоб. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1989. Т. 4. – 557 б.
9. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Бадоев ул-васат МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1990. Т. 5. – 541 б.
10. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний: Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1990. Т. 6. – 568 б.
11. Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. Т. 7. – 392 б.

12. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1997. Т.13. – 284 б.
13. Алишер Навоий. Мұхокамат үл-луғатайн. Мезон үл-авзон. Тарихи анбие ва ҳукамо. Тарихи мұлуки Ажам. Арбајин. Сирож үл-муслимін. Муножот. Рисолаи тийр андохтан. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2000. Т. 16. – 336 б.
14. Алишер Навоий. Девони Фоний. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 2002. Т. 18. – 551 б.
15. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сигар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011. Ж.1. – 804 б.
16. Атоуллоҳ Ҳусайнний. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981. – 398 б.
17. Захириддин Бобир. Мұхтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – 413 б.
18. Ҳусайн Бойқаро. Рисола: Девон. – Т.: Шарқ, 1995. – 160 б.
19. Мұхаммад Ризобек Ҳоккор. Алишер Навоий асарлари луғати. Мунтахаб үл-луғот. Зубд үл-луғот /Масъул мұхаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Akademnashr, 2017. – 416 б.
20. Хондамир Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Т. : O‘zbekiston, 2013. – 1272 б.
21. Шайх Аҳмад ибн Ҳудойдод Тарозий. Фунун үл-балоға. – Т.: Хазина, 1996. – 212 б.

### **Ilmiy-nazariy adabiyotlar:**

22. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997. – 20 б.
23. Алишер Навоий. Ғазаллар. Шархлар. – Т.: Камалак, 1991.

24. Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти (халқаро илмий-назарий анжуман материаллари). – Т.: O‘zbekiston, 2011. – 176 б.
25. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жиллар /Масъул мухаррир Ш. Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.
26. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.
27. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Т.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
28. Жумахўжа Н. Сатрлар силсиласидаги сеҳр. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 224 б.
29. Зоҳидов Л. “Девони Фоний” бадииятига доир мулоҳазалар // Адабиёт кўзгуси. – Т, 2010. – № 10.
30. Зоҳидов В. Яна бир дебочанинг шаҳодати / Жаҳон бадиияти зарвараклари. – Тошкент: 1980. – Б.282-298.
31. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
32. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983. – 168 б.
33. Каримова Ф. Ўзбек адабиётида дебоча. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2012. – 112 б.
34. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: TAMADDUN, 2012. – 316 б.
35. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Mobarounnahr – O‘zbekiston, 2009. – 448 б.
36. Мирзаев С. Навоий арузи: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 1946.
37. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X–XV вв.). – М.: Наука, 1989. – 240 с.
38. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972. – 180 б.
39. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.
40. Сирожиддинов Ш.С. Алишер Навоий ҳаёти ва фаолиятига оид XV-XIX асрларда яратилган форс-тожик манбалари (қиёсий-типологик,

текстологик таҳлил): Филол. фан. докт. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1998. – 45 б.

41. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий- типологик, текстологик таҳлили. – Т.: Akademnashr, 2011. – 326 б.
42. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – T.: TAMADDUN, 2018. – 520 b.
43. Солиҳова М. Навоий дебочаларида шоир биографиясига доир маълумотлар // Адабий мерос. 1-том. – Тошкент, 1968. – Б.94-95.
44. Сулаймон Ҳ. “Хазойин ул-маоний” матнларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари / Хазойин ул-маоний. 4 томлик, 1-том. – Тошкент, 1960.
45. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2005. – 272 b.
46. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.
47. Yusupova D. Aruz alifbosi (Navoiy poetikasi fanidan saboqlar). – T.: Akademnashr, 2015. – 136 b.
48. Фаниева С. Алишер Навоийнинг прозаик асарлари. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – 37 б.
49. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011.
50. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. – 227 б.
51. Ҳайитметов А. Навоийхонлик сухбатлари. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 216 б.
52. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996. – 160 б.
53. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумахўжа, масъул муҳаррир А.П. Қаюмов. – Т.: O’zbekiston, 2015. – 328 б.

- 54.Ҳасанов С. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. – Тошкент: Фан, 1981. – 96 б.
- 55.Хожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 224 б.
- 56.Хожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
- 57.Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
- 58.Хожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.
- 59.Хожиаҳмедов А. Ҳусни таълил санъати. – Тошкент: Фан, 2006. – 288 б.